


# Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

# IJODIY PARVOZ



2022-yil avgust № 8 (112) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz ijodiyparvozgazetasi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy gazetasি

## Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik

Barchamizga ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi qaror imzolandi.



"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha'ni va g'ururini yetakchi o'ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo'linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko'p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda", — deya qayd etiladi ushbu hujyatda.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituting 200 nafarga yaqin talabasi ham mazkur ayyomda bevosita ishtirok etish uchun jaib etilgan. Talabalarning tantanalarga tayyorlanishi uchun institutda barcha sharoitlar yaratilmoqda. Instituting professor-o'qituvchilar doimiy ravishda talabalarning holidan xabar olishmoqda. Talabalar bilan suhbat davomida bayramga tayyorgarlik jarayonlari, ularning yashash sharoiti hamda muammo va kamchiliklari o'rganildi.

Xususan, instituting Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektori Eldor Shermonov

Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko'rayotgan talabalar bilan uchrashdi.

Tadbir davomida istiqlolimizning 31 yilligini munosib kutib olish va yuqori saviyada nishonlash doirasida olib borilayotgan ishlari bo'yicha fikr almashildi. Yurtimizda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan islohotlar to'g'risida tegishli ma'lumotlar berildi.

O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ysi. Bu yo'lida u jahoning ko'plab mamlakatlari va yirik xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, xorijiy davlatlar bilan do'stona hamda o'zarlo manfaatlari munosabatlari rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishilmoxda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizning jahon hamjamiyati munosib o'rinn egallashiga asos bo'lvuchi ulkan yutuqlar qo'lga kirildi. Shunga munosib ravishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan islohotlar va modernizatsiya jarayonini, jumladan qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha siyosatni dunyo hamjamiyati e'tirof etmoqda.

Bu haqda davra suhbat davomida ishonchli misollar asosida fikr-mulohazalar bildirildi.



31-avgust —  
Qatag'on qurbanlarini  
yod etish kuni

## ULARNING AYBI BUYUK BO'LGANI...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qatag'on qurbanlari haqidagi "Ularning aybi buyuk bo'lgani. Biz shu vaqtgacha tarixning o'zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o'tdik. Birovg'a yoqadimiyoqmaydimi, g'ururimizmi, armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi — hammasini haqqoniy yozish kerak", — degan gapi isboti sifatida so'nggi yillarda o'sha mudhish davrda qurban bo'lganlar xotirasini abadilyashtirish, merosini o'rganishga doir farmon va qarorlar imzolani, ezgulikka yo'g'rilgan xayrli ishlari amalga oshirilyapti.

2000-yil 12-may kuni Toshkent shahrining Yunusobod tumanida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuni tantanali-motam vaziyatida ochilgan edi. Bu xalqimizga XX asrning 30–50-yillarda muborak xoklari sobiq Ittifoqning barcha qatlgholarida qolib ketgan ajodolarimizning shu yerdag'i ramziy sag'anasisiga gul qo'yish va ular ruhiga tilovat qilish imkoniyatini ham berdi. Aynan shu sanada sovet davlati qatag'onchilik siyosatining qurban bo'lgan ota-bobolarimiz vahshiylarcha otib tashlangan. Kamina o'sha tarixiy kуни eslaganimda, bir tomonдан, jabrdiyda otabobolarini eslab yig'i-sig'i qilgan, ikkinchi tomondan, ularning "xalq dushmanlari" emas, balki millat fidoyilar sifatida e'zozlanayotganidan mamnun bo'lgan chol va kampirlar, yigit va qizlar ko'z oldimdan o'tadi. Ular shunday muborak kunga yetib kelganlari va ota-bobolarining nomini g'urur bilan tilga olib mumkin bo'lganidan benihoya baxtiyor edi.

### "Shahidlar xotirasi" maydonida

O'sha kundan boshlab o'rta va oliv o'quv yurtlari talabalar, korxonalar, tashkilotlar vakillari, viloyatlardan va xorijdan kelgan mehmonlar tez-tez shu yerga tashrif buyurib, noma'lum qatag'on qurbanining ramziy qabriga gul qo'yish, Qur'on suralarini o'qish bilan shahidlar ruhini eslab, e'zozlab keladi va bu marosim milliy marosimga, milliy an'ana aylandi. Shunday ziyorat kunlarining birida otashnafas shoir Jumaniyoz Jabborov shahidlarning porloq xotirasiga bag'ishlangan she'rini o'qib, yig'ilgan yoshlar qalbini titratib yuborgan edi.

### Ushbu sonda:

Milliy kino taraqqiyotida badiiy adabiyyotning o'rni

Yana bir oydin haqiqat shuki, agar inson kitob o'qimasida, avvalo, unda did shakllanmaydi, ikkinchidan, u yaxshi tomoshabin ham bo'la olmaydi va haqiqiy san'atni qalbaki san'atdan farqlay olmaydi.

MILLATNING ULUG'LIGI TIL, ADABIYOT VA SAN'AT BILAN  
yoxud  
"Inson qasidasi"ning bardavom umri

Zuvalasi pishiq she'rnинг umri go'zal qo'shiqqa ularni ketadi. "Inson qasidasi"ni ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev ijrosida eshitib ulg'ayganmaniz. Prezidentimiz taqdim etgan g'oşa asosida "Inson qasidasi"ni umumbashariy qo'shiqqa aylantirish ishiga jamoa bo'lib kirishildi.

MUHAMMAD YUSUF XOTIRASIGA  
24

## MUHIM MASALALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yuldashev boshchiligidagi yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayoniga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilish davomida institutning ma'naviy-ma'rifiy, o'quv-uslubiy va molイヤ xo'jalik yo'nalishlarida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik borasida fikr almashildi. Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi asosiy masalalardan biri yaqinlashib kelayotgan mustaqillik bayramining 31 yilligi ko'tarinki ruhda o'tkazish maqsadida, joriy yilning 22-avgustdan 28-avgustgacha dolzarb haftalik e'lon qilindi. Shu maqsadda, har bir kafedraga birkirtirilgan yer maydonida obodonlashtirish ishlari tashkil qilinadi hamda yakunda "Eng taxshi obodonlashtirilgan hudud" nominasiyasi bo'yicha g'olblar aniqlanadi va institut rahbariyatining esdalik sovg'alarini bilan taqdirlanadi.

O'quv-uslubiy yo'nalishdagi asosiy masalalardan biri yangi o'quv yili uchun dars jadvallarini tartibli shakllantirish va o'z vaqtida o'quv xonalari taqsimotini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Eng muhim vazifa sifatida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" shiori ostida mustaqillik darslarini yuqori darajada tashkil etishga barchanishing birdek mas'ul ekanligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, "Hemis" tizimida talabalariga oid ma'lumotlarni sifatlari shakllantirish, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini

ko'rib chiqish, talabalikka qabul qilingan 1-bosqich talabalarining buyruqlarini o'z vaqtida chiqarish kabi muhim vazifalarini o'z vaqtida bajarish bo'yicha mutasaddilarga tegishli tavsiyalar berildi. Moliya-xo'jalik yo'nalishida esa avvalo talabalar turar joyining yangi o'quv yiliga shay holatda bo'lishi masalasi ham ko'rib chiqildi.

Hozirgi kunda talabalar turar joyiga bo'lgan ehtiyojni hisobga olib, talabalarni saralashda belgilangan mezonlarga qat'iy roya qilish kerakligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, talabalar turar joyidan joy ololmagan talabalgarda ijara uylaridan topishda tizimli ko'maklashish, ijara pullarining 50 foizini to'lab berish tizimini yangi o'quv yilida ham davom ettirish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlandi. Bundan tashqari institut boshqaruva apparatining muhim bo'g'ini bo'lgan barcha tegishli bo'limlarga yillik ish rejalarini tayyorlash va tasdiqlash vazifasi qo'yildi. Erkin muloqot tarzida o'tgan vazifalarini bajarishda institutning har bir xodimi belgilangan vazifalarida ezzulik mujassam ekanligini his qilib, ishga vijdongan yondashishi, institutning har bir qarich yerini ona vatanimiz O'zbekistonning bir parchasi sifatida e'zozlashi lozim ekanligi alohida ta'kidlandi.

2022-yil O'zbekiston va Janubiy Koreya Respublikalari o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatalganining 30 yilligi hamda O'zbekiston Koreys madaniyat markazlari uyushmasining tashkil topganiga ham 30 yil to'lgani munosabati bilan joriy yilning 16-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining O'quv teatrida konsert dasturi tashkil etildi.

## Millatlararo hamjihatlik – taraqqiyot kafolati



Tadbirda bir qator mehmonlar, faxriy ustozlar, institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, tajribali olimlar tashrif buyurishdi.

Mazkurtadbirda ikki mamlakat o'rta tashrifidan imunosabatlar o'zarohurmat, ishonch va anglashuv tamoyillariga asoslangan strategik sherlik darajasiga ko'tarilgani ta'kidlandi. O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rta tashrifidan ikki tomonlarga keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik rivojlanish borasidagi manfaatlari hamkorlik jarayonlari e'tirof etildi. Koreys madaniyat markazlari uyushmisi va O'zbekistonning coreyslar diasporasi ikki davlatni bog'lovchi o'ziga xos ko'prikligi, an'analar va mentalitetlar o'xshashligi esa qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirayotgani aytib o'tildi.

2

## Millatlararo hamjihatlik – taraqqiyot kafolati



**1** O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan bir qancha koreyslar yuksak mukofotlar bilan taqdirlanayotgani qayd etildi.

Millatlararo totuvlik, hamjihatlik umumbashariy qadriyat hisoblanadi. U muayyan jamiyatida yashab, yagona maqsad yo'lda mehnat qilayotgan turli millat hamda elat vakillari ahilligining ma'naviy asosini mustahkamlaydi, tinchlik va barqarorlikning, taraqqiyotning kafolati bo'lib xizmat qildi.

Yig'ilganlar musiqaning ajib bir sehrini, o'zgacha jozibasini his etishdi. Jonli ijrodagi Koreys milliy ashula namunalarini tinglab, hayratlandilar. Buyuk kompozitorlarning mashhur asarları, kinofilm, serial musiqalarining ijrosi yanada zavq bag'ishladi. Ajoyib raqlar ham olqishlarga sazovor bo'ldi. Ijlarning mukammaligi barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Kuy-qo'shiqlarda xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, madaniy hamkorlik yana bir bor namoyon bo'ldi. Qayd etilganidek, musiqa insonda yuksak didni shakllantirishga xizmat qiladi va unga ma'naviy ozuza beradi. Kishi ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, naftosat olamiga olib kiradi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda barcha millat va elat vakillari qatori, koreys yurdoshlarimiz uchun ham o'z milliy madaniyati, tili, urf-odat va an'analarini asrab-avaylashi uchun zarur sharoit yaratilgan. Qator koreys madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Koreya Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi, "O'zbekiston – Koreya" do'stlik jamiyatini bilan yaqindan hamkorlik qiluvchi O'zbekiston Koreys madaniyat markazlari uyushmasining faoliyat yuritmoqda. Koreya Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi, "O'zbekiston – Koreya" do'stlik jamiyatini bilan yaqindan hamkorlik qiluvchi O'zbekiston Koreys madaniyat markazlari uyushmasining faoliyat yuritmoqda.

Konsert dasturi tashrif buyurgan barcha mehmonlarga juda manzur bo'ldi. Kelgusida ham mana shunday tadbirlarni tez-tez tashkil etilishiga tilak bildirildi.

**O'z muxbirimiz.**

## Millatning ulug'ligi til, adabiyot va san'at bilan yoxud "Inson qasidasi"ning bardavom umri

Shunday daho ijodkorlar borki, ular yaratgan asarlarni qalb mulki, ma'naviyatimiz javohirlari sifatida qadrlaymiz. Davrlar o'tadi, ular ta'sirida yuzlab iste'dodlar kamol topib yuqori cho'qqilarni zabit etidi.

O'z navbatida, bu shaxslar daho ijodkorlarni o'zlarining ustozlari deb bilishadi. Hayratlanarli shundaki, ana shu ustozlik va shogirdlik munosabatlariha ular yashagan davr oralig'idagi yuzlab yillar ham mone bo'lilmaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlarning ko'lami niyoyatda katta. Tom ma'noda aytish mumkinki, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari qadam tashladik. Bu yuksalish va o'zgarishlar zamirida ilm-fan, adabiyot, san'atga ulkan e'tibor yotishimi mamlakatimiz rahbari o'zining har bir nutqida qayta-qayta ta'kidlab kelmoqda. Millatning borligini, ulug'ligini namoyon etib turuvchi jihatlar, bu uning tili, adabiyoti va san'atidir.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangach, imzolagan ilk qarorlaridan biri ham bevosita adabiyot sohasiga daxldor bo'ldi. Ya'nini elimizning suyuklari farzandi, zabardast shoir, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida maxsus qaror e'lon qilindi.

Xalq shoiri Erkin Vohidovning "Inson qasidasi" Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganligining 75 yilligiga bag'ishlangan "UN75" onlays-tadbirda o'zbek, qozoq, turk, arab, ingliz, rus, italyan va tojik tillarida baralla yangradi. Bu degani o'zbek shoiri ilgari surgan umumbashariy g'oyaga dunyoning eng yuksak minbaridan turib kuchli xayriyohlik bildirildi.

Istiqlol yillarida milliy kinematografiyani har tomonlama rivojlantirish, bu borada zarur moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tufayli yangi-yangi filmlar suratga olinmoqda. Ular orqali tariximiz va bugungi hayotimiz bilan bog'liq turli mavzular yoritilmoqdaki, bu, so'zsiz, kino san'atining inson ongi va tafakkuri, jamiyat hayotiga ta'siri beqiyos ekanidan dalolat.

## MILLIY KINO TARAQQIYOTIDA BADIYY ADABIYOTNING O'RNI

Sir emas, o'zbek kinofilmlari turli xalqaro kinofestivallarda sovrinli o'rnlarga sazovor bo'lyapti. Bugungi kunda milliy kino san'atida ishlab chiqarilayotgan filmarning sifati, mavzulari haqida turli xil fikrlar bildirilmoqda. O'zbekfilm va xususiy kinostudiylar tomonidan olinayotgan filmlar nisbati xususida, ularning sifati haqida tanqidiy fikrlar ham bisyor: kino san'atini san'atmi yoki sanoat ekanligi borasida ham keskin tus olayotgan bahs-munozaralar hamon davom etyapti.

2017-yil o'zbek kino san'ati uchun juda esda qollarli yil bo'ldi. Shu yili muharam Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'zbek kinosi va kinoindustryani rivojlantirishning chora-tadbirlari bo'yicha qaror qabul qilindi, milliy kinematografiyani zamon talablarasi asosida rivojlantirish, yosh kinojodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, "O'zbekkino" Milliy agentligi huzurida Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg'armasi va O'zbekiston kino arboblari ijodiy uyushmasi tashkil etildi.

So'nggi yillarda respublikamizda o'tkazilayotgan "Prolog" qisqa metrajli filmlar kinofestivali ham zaminimizda yosh, mahoratli rejissorlarning kinoga kirib kelishiga imkon yaratmoqda. 2021-yilning 28-sentabrdan 3-oktabrigacha o'zining 50 yildan ziyod tarixi va an'analariga ega bo'lgan Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tikanli, "Ipak yo'li durdonasi" degan yangi nom bilan "Tinchlik, ma'rifat va taraqqiyot uchun" shiori ostida o'tkazilgani shu yo'ldagi ulkan amaliy qadamdir. Festivalda ishtirok etish uchun dunyonning ko'plab mamlakatlaridan 450 dan ortiq kinematografist keldi. Tadbir doirasida ijodiy uchrashuvlar, ma'ruzalar, mahorat darslari, VGIK filiali va oltita kinoteatr ochilishi, hujjatlari filmlar namoyishi va yosh kinojodkorlar tanlovi o'tkazildi. Festivalga faxriy mehmon sifatida Nikita Mixalkov, Timur Bekmambetov, Pavel Priluchniy, Lyuk Besson, Mitxun Chakraborti, Stiven Sigal va boshqa yulduzlar taklif etildi.

Yuqoridaq ijodiy o'zgarishlarga qaramay, o'zbek kinosi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan sabablardan bira kino san'ati sohasida milliy zaminda yetishib chiqqan, milliy ruh bilan oziqlangan, jahon va o'zbek adabiyoti bilan yaqindan oshno bo'lgan haqiqiy milliy o'zbek rejissori va kinodramaturglarining ozligidir. Shu bois bu yo'nalishda milliy kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa sifatida qo'yilgan bo'lib, uni amalga oshirishda bugungi kunda shu soha ta'limida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning xizmatlari e'tirofga loyiq. Bugungi o'zbek kinosida soha bo'yicha professional bilimga ega bo'lmay, o'zini kinorejissor hisoblaydiganlar ham kam emas, holbuki professional bilimga ega bo'lmay, o'qib o'rganish, haqiqiy ustoz tarbiyasini olmay, bu sohada kutilgan natijaga erishish mumkin emasligini ta'kidlash lozim. Endilikda davlat tomonidan beriladigan ijodiy grantlar uchun o'tkaziladigan tanlovlarida xususiy studiyalarining ishtiroki o'ziga xos sog'lom ijodiy raqobatni yuzaga keltirmoqda. Raqobat bor joyda esa, albatta, rivojlanish, yangilik bo'ladi. Milliy kinoning taraqqiyoti uchun bu niyoyatda muhim ahamiyatga ega, shubhasiz. Bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kino va televideniye rejissorligi, sahna va ekran dramaturgiysi, kinoteleoperatorlik san'ati, televideniye va radio ovoz rejissorigi kabi bo'limlarda o'lab talabalar o'zbek kinosining ustoz vakillari A.Ubaydullayev, A.Ismoilov, H.Nasimov, J.Qosimov, B.Odilov, I.Meliqo'ziyev, A.Arzuqulov kabilardan rejissorlik, kinoteleoperatorlik sirlarini o'rgamoqda. Ustoz murabbiyalarning o'gitlari esa ko'p asrlik qadriyatlarimizni e'zozlash, san'at asarlarining milliyligi, sofligiga erishish, u orqali yosh avlodni turli ko'rinishdagi xurujlardan asrashga qaratilgan.

Kino san'atida ham "ommaviy madaniyat" niqobi ostida ahloqiy buzuqlik va zo'avonlik, individualizm, egotsentrism g'oyalarini tarqatish, axloqsizlikni madaniyati deb bilish bilan bog'liq holatlar yoshlar tarbiyasi, oila muqaddasligi, jamiyat taraqqiyotiga hamon katta xavf solmoqda. Buning ta'siri ba'zi kinofilmlar mazmuni, g'oyasi, qahramonlari timsolida aks etganday, nazارимизда. To'g'ri, mustaqillik davrida o'zbek kinojodkorlari tomonidan suratga olingan yaxshi, sifatlari, mahorat bilan yaratilgan kinaosarlar ham yo'q emas. J.Qosimovning "Suv yoqalab", H.Nasimovning "Tubanlik", "Aldangan ayol", "Gumrohlar", H.Fayziyevning "Kichkina odamlar", "Yozsiz yil", M.Oxunovning "Begonalar", "Shabnam", "9 oy", Z.Musqovquning "Qo'rg'oshin", "Vatan", "Novda", "Berlin-Oqqa'rg'on" filmlari o'zbek kinosi tarixidan munosib o'rin olishi shubhasiz. Sababi, ularda ilgari surilgan g'oyalarda milliy qadriyatlarimiz e'tirofi ko'zga tashlanadi. Film qahramonlari esa sermuloha, sodd, oddiy, bag'rikeng o'zbeklar. 2018 – 2021-yillarda ham "Mirzo Ulug'bek", "Osmon toq'iga qo'yilgan narvon", "Behbudiy", "Islomxo'ja", "Imom Abu Iso Muhammad Termizi", "Ibrat", "Avloniy", "Qo'qon shamoli", "Muqimiy" kabi tarixiy filmlarning yaratilishi o'zbek kinosida yuz berayotgan katta o'zgarishlardan darak bermoqda.

Bu fikrlarning isbotini rus tiliga dublyaj qilib "YouTube"ga joylangan o'zbek filmlarini tomosha qilgan turli millat vakillarining yozib goldirgan mulohazalarida ham ko'rishimiz mumkin. Ularning aksariyatida o'zbek filmlarida oila, uning muqaddasligi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro mehr-oqibat mavzularining o'ziga xos tarzda aks etganligi, milliy urf-odat, an'analariga bo'lgan e'tibor, hummatning hali ham yuqori darajada ekanligini, g'arb yoki rus kinosining filmlaridan farqli o'laroq o'zbek filmlarini oila

davrasida ko'rish mumkinligi haqida iliq fikrlar bildirilgan. Bunday iliq fikr-mulohazalarini o'qib so'zsiz faxrlanasan, milliy kinomizning o'zga millat vakillari tomonidan e'tirof etilgan ijobiy jihatlarini yana bir marta o'zing uchun kashf qilgandek bo'lsasan kishi.

Ammo yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham talaygina, nazarimizda. Kino san'atida ham iqtisodiy talablar inobatga olinayotganligi, "popcorn" tomoshabinining talabiga mos ravishda kassabop filmlar yaratilayotganligi, endi kinoning faqat san'at emas, sanoatga ham aylanib ulgurganligi hammaga ayon haqiqat. Bugungi kunda kitob ham, film ham, tasviriy san'at asarları ham tovarga aylanib ulgurdi. Lekin shunga qaramay, san'at, avvalo, haqiqiy san'at tovarga aylanishi mumkin emas, deb hisoblaymiz. Buning ikki jihat: ham yaxshi, ham yomon tarafi to'g'ri, adolatli baholanishi lozim. Bu esa shunchaki oddiy haqiqat qiyosi xolos. Biroq kinoni hali ham haqiqiy san'at deya ta'riflovchilar, tan oluvchilar ko'philknii tashkil qiladiki, bu quvonlarli hol.

Kino san'atining so'z san'ati deya e'tirof etilgan badiyy adabiyot bilan uzviy bog'liqligi masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. O'zbek adabiyotini, o'zbek adabiyoti tarixini va bugunin mukammal bilgan rejissorga mavzux axtarish, ssenariy yaratish muammosi emas. Chunki teatrga ham, kinoga ham ozuqani – mavzuni adabiyot beradi. To'g'ri, bugun turli xil ma'lumotlarni, xususan, adabiy-badiyy ma'lumotni ham internetdan olish mumkinday. Lekin bu ma'lumotlar qanchalik ko'p bo'lmasin, u kitobga – tagmatnga tenglasha olmaydi. Ayniqsa, badiyy adabiyotga. Shu o'rinda fransuz adibi Gyustav Floberning o'z romanini bejiz "Tuyg'ular tarbiyasi" deb nomlamaganini eslash o'rinni. Demak-ki, bolaligidan mutolaaga o'rganmagan, umri davomida kitob o'qimagan kimsasing hayoti bekor o'tgani aniq; u yoki bu filmida ko'rgan voqealarga munosabati esa befarq, sust. Sababi, uning ruhiy-ma'naviy dunyosi g'arib va kemptik bo'lib, bunday bolar tarbiyasida buyuk pedagog yozuvchilar ishtirok etmaganlar.

O'zbek kinosi tarixiga murojaat etsak ham badiyy adabiyot namunalari asosida yaratilgan qator filmlarni ko'ramiz. Bular: "Muhabbat mojarosi" filmi (1971-yil, rejissor: Sh.Abbosov) S.Ahmadning "Ufq" triligi asosida, "Shum bola" (1977-yil rejissor: D.Salimov) G'.G'ulomning "Shum bola qissasi asosida, "Ulug'bek yulduzi" (1964-yil, rejissor: L.Fayziyev) M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi asosida "Qutlug' qon" filmi (1956-yil, L.Fayziyev) Oybekning shu nomli romanasi asosida "O'tgan kunlar" filmi (1969-yil, rejissor: Y.A'zamov) va "Zulmatni tark etib" filmi (1973-yil rejissor: Y.A'zamov) A.Qodiriy romanlari asosida "Sen yetim emassan" (1963-yil, rejissor: Sh.Abbosov) Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" asari asosida "Sehrli qalpoqcha" (2012-yil, rejissor: S.Karimov) X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanasi asosida suratga olingan. Bu an'analing bugungi kunda ham davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

Jahon kinosidagi muvaffaqiyat qozongan filmlarning asosini ham asli adabiyot, haqiqiy ma'nodagi dramaturgiya tashkil qilishi ayon. Shuning uchun ham XX asrning 60-yillarida yozib o'mal qilish madaniyatining susayib borayotganini kuzatgan rejissorlar adabiy asarlarning ekrani variantini yaratishga kirishganlar. Bizda ham shu an'anasi yo'iga qo'yish, o'zbek adabiyotining mumtoz asarlarni katta ekranga olib chiqish lozim. Balki ana shundagina, badiyy adabiyotdan yiroq bo'lgan yoshlarni mutolaaga qiziqitirish, kitobga oshno qilish imkonini kengayar. Chunki bugun ham Gomerning "Iliada" dostoni haqida so'z yuritar eksanz, u haqda umuman eshitmagan, lekin Gollivud kinojodkorlari ishlagan "Troya" filmini ko'rgan yoshlar ko'philknii tashkil etadi.

Yana bir oydin haqiqat shuki, agar inson kitob o'qimasa, avvalo, unda did shakllanmaydi, ikkinchidan, u yaxshi tomoshabin ham bo'la olmaydi va haqiqiy san'atni qalbaki san'atdan farqlay olmaydi. Shu bois san'at yo'nalishida tahsil olayotgan bugungi avlodga bo'lg'usi rejissor va kinodramaturglarga, turli davrga oid, turli yoshdag'i, turlicha salohiyatga ega bo'lgan, xilma-xil kasb-kordagi insonlarni sahnada gavdalantiruvchi kino aktyorlarga badiyy adabiyotni chuqur o'rganish, uni tahlil qila bilish, nafaqat oddiy kitobxon, balki malakali adabiyotshunos bo'lish ham kerak bo'ladi. Bu esa hayot taqozosidir. Zero, milliy adabiyotimiz multiga mansub ko'plab asarlar ekranlashtirilishni kutib yotidi.

Adabiyot bilan oshno bo'Imagan, Navoiy va Boburni, Mashrab va Furqatni, Qodiriy va Cho'ponni, Oybek va Qahhorni, S.Ahmad va O'Hoshimovni, E.Vohidov va A.Oripovni o'qimagan, o'qimayotgan, o'qishni istamayotgan yoshlarning oxir-oqibat shafqatsiz, ikkiyuzlamachi, niglist, kosmopolit bo'lib voyaga yetishi, iymon, insof va diyonat, vijdon va olijanoblik kabi oddiy insoniy fazilatlarga ham ega bo'la olmasliklari ayon haqiqat. Shunday ekan, biz yangicha fikrashga, zamona bilan hamqadam bo'lishga, o'tmishni qu'zmanay, oldinga qarab intiluvchi avlodni tarbiyalashda, so'zsiz, san'atga, adabiyotga tayanish yo'lidan borishimiz lozim.

**Sevara MAHMUDOVA,**  
**O'zDSMI "O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini,**  
**dotsenti,**  
**filologiya fanlari nomzodi**





# Millatning ulug'ligi til, adabiyot va san'at bilan

yoxud  
“Inson  
qasidasi”ning  
bardavom umri


Agar usto Erkin Vohidovning ijodiy  
bisotida tanho shugina she'ri bo'sha  
ham edi, u zotning pokiza ruhi baribir  
abadiyta daxldor bo'lib qolaverardi. Zero, bu  
muhtasham misralarni bitish uchun shoirimiz jahon  
mutafakkirlari zehniyatining necha buloqlaridan  
to'yib-to'yib simirgan, necha durdona asarlarning  
ma'noma maxzanlaridan quvvat olgan va ularni  
ona tilimizga o'girib, butun o'zbek xalqini ham  
bahramand bo'lishiga hissa qo'shgan.

Donishmand o'zbek shoirini qattiq tashvish  
lantirgan cho'ng falsafa bugun dunyoning turfa  
millat vakillari qalbini hali-hamon titratab turibdi.  
Orada necha avlod tug'ilib ulg'aydi, necha suvlar  
oqib o'tди.

Olam butkul o'zgardi, lekin shoh asar – “Inson  
qasidasi”ning qadri o'zgarmadi. Mag'zining  
to'qligi, mazmuniga singgan g'oyaning baqv  
vatligi tufayli qasida zamoni va makonini  
kengaytirib yashab kelmoqda.

Ayniqsa, bugun bani bashar mana shunday  
kuchli mafkuraga tashna. Dunyoda kechayotgan  
g'atali voqealar to'fonida insoniyat aslyiatini,  
mohiyatini yangidan eslab olishi bugun nihoyatda  
zarur.

Zuvalasi pishiq she'rning umri go'zal qo'shiqqa  
ulanib ketadi. “Inson qasidasi”ni usto san'atkor,  
O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev ijorsida  
eshitib ulg'aygammiz. Prezidentimiz taqqid etgan  
g'oya asosida “Inson qasidasi”ni umumbashary  
qo'shiqqa aylantirish ishiga jamoa bo'lib  
kirishi. She'rga Nodir Umarov kuy bastaladi,  
Aziz Xolmurodov kuyni sayqalladi, Dilmurod  
Matkarimov ovozlarni yozish ishiga mas'ul bo'ldi,  
Sanjarbek Matkarimov klip konsepsiyasini ishlab  
chiqdi.



Yozuvchilar uyushmasining ko'magi bilan  
she'r boshqa tillarga o'girildi. Keyin ushbu loyiha  
bo'yicha hamkorlik yuzasidan dunyo yulduzlarini  
jalb qilindi. Shu o'rinda tilning, so'zning  
qudrati haqida yana bir gapni aytib o'tish o'rinni.  
Tashabbuskorlar turli mamlakatlarning mashhur  
xonandalari bilan bog'langanida, avvalboshda  
katta-katta gonorlar labal qilishgan ekan. Albatta,  
“yulduz” bo'lgach, bunga haqqi bor. Lekin ushbu  
loyiha mohiyatini anglab yetganidan keyin birin  
sirin gonorardan voz kechishgan ekan. Ko'pchilik  
xorijlik xonandalari bu qo'shiqni aytish uchun pul  
olish ayb, deyishgan.

Rossiyalik mashhur xonanda Oleg Gazmanov  
loyihadagi ishtiroti uchun oldindan olib bo'lgan  
gonorarini Toshkentdagi Mehrbonlik uylaridan  
biriga o'tkazdi. Mana, insoniylik qanday yaraladi.  
Mana, so'zning qudrati, ma'nuning mohiyati...

Shu zaylda O'zbekiston tashabbusi bilan  
xalqaro loyiha dunyoga keldi. “Inson qasidasi”  
o'zbek tilida Ozodbek Nazarbekov, qozoq tilida

Omirqul Ayniyazov, arab tilida Ahmad al-Xuraybiy,  
turkchada Rafet El-Roman, italyan tilida Alessandro  
Safina, ingliz tilida Dilafruz Rustamova, tojik  
tilida Zafar Abdualimov, rus tilida Oleg Gazmanov  
lafzidan yangradi. G'oya g'oyaga ulandi. Bu  
qo'shiq donishmand xalqimizning umumimsonsiy  
qadriyatlarga ohangdosh mafkurasini tarannum etdi.

Shoirming ijodiy mahsuli bo'lgan qasida  
aynan til orqali jahon madaniyatining durdonasi  
sifatida baralla jarangladi. Demak, bugun har bir  
millat vakillari qatori, ayniqsa, ijodkor ziyolilar,  
shoir-yozuvchilar, tarjimonlar, dramaturglar,  
ssenaristlar tilimiz sofligini saqlash, boyitish  
va uni umumjahon tillar doirasidagi qadriyatini  
oshirishga kamarbasta bo'lishi lozim.

**Qunduz NISHONBOYEVA,**  
O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti san'atshunoslik va  
madaniyatshunoslik kafedrasidagi dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi

**MUHAMMAD  
YUSUF XOTIRASIGA**

Lolaqizg'aldoqlar yig'lar adirda,  
Peshonasin tutsa o'pmaydi hech kim.  
Ularning otasi uxlар qaborda,  
Kutishar yuz bermay qoladi tilsim.

Yalpizlar ariqning labida g'ujg'on,  
Endi ular bilan sirlashguvchi yo'q.  
Yarasin yamolmas ohu ko'z jayron,  
Ayrilik hiringlar ko'zin qilib lo'q.

Samarqand yig'laydi izin sog'inib,  
Ma'yus kuni ko'zi tushsa qabriga.  
Ulug' minoralar turar og'irinib,  
Endi kimlar malham bo'lar dardiga?!

Andijon yig'laydi yolg'izligidan,  
Marhamat yo'qotdi xassos shoirin.  
Iqror bo'ldi borliq ojizligidan,  
Ajal ham tasodif keldi yashirin.

Osmon cho'kib qoldi ona qaddidek,  
Suvpari sevilmay qolmoqda bugun.  
Harorat ko'rmadi shoir qalbidek,  
Shundan she'riyatning tili ham zabun.

Zominni mahv etdi shoir nidosi,  
Qalbimizda mangu qolar aslida.  
Muhammadisz sokin nazm dunyosi,  
Endi kuylanmaydi yurtga qasida.

Erka kiyikchalar erkalik qilmas,  
Kapalaklar gulga aytmaydi dilroz.  
Qizil olma sirin hech kimsa bilmas,  
Qandin urib yurar endi lo'ttivoz.

“Biz baxtli bo'lamic” dedi-yu noxos,  
Ortiq so'zlamoqqa yetmadni majol.  
Yozilmagan she'rlar solmoqda uvvos,  
Bir chetda mung'ayib qoldi majnuntol.

“Biz hali hammadan o'tamiz” deya,  
Yig'lab yozgan she'ri tutmoqda motam.  
Butun olam unga yozar marsiya,  
Shoir she'ri ila odamlar bardam.

Taqdir sinovlari og'irdan og'ir,  
Vaqt o'tib har vujud bo'ladi mag'lub.  
Balki shuni o'ylab kuyukdir bag'ir,  
Qaytmas bo'lib ketdi Muhammad Yusuf.

Zilolabonu XOLIQOVA,  
“San'at va madaniyat muassasalarini  
tashkil qilish hamda boshqarish”  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

## # Tilimiz uchun

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-  
yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan  
tasdiqlangan 2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini  
rivoljantirish va til siyosatini takomillashtirish  
konsepsiyasiga muvofiq davlat tilining axborot va  
komunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet  
jahon axborot tarmog'ida munosib o'ren egallahshini  
ta'minlash, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtini  
mazmunli tashkil etish, ularni kitobxonlikka  
jalb qilish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi  
tomonidan o'tkazilayotgan “WikiStipendiya”  
marafoni doirasida joriy yilning 1-6-avgust kunlari  
Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan  
“Yoshlar oromgohi”da “Viki-oromgoh” loyihasi  
tashkil etildi. Ushbu loyiha ishtirokchilari safida  
men ham o'zbekcha vikipediyanı rivojlantirishga  
oid ko'plab yangi bilimlar orttirdim. Oromgoh  
taassurotlari bilan o'ttoqlashishdan avval ushbu  
loyiha haqida qisqacha ma'lumotlarni keltirib  
o'tmoqchiman.

Vikipediya ochiq internet ensiklopediyasiga maqola  
larning 63 foizi ingliz tili, 6,9 foizi rus tili, 4 foizi turk tili va  
boshqal tilliarda kiritilgan. Afsuski, o'zbek tilidagi maqolalar  
0,1 foizdan ham kam ko'rsatkichni tashkil qiladi. Yoshlar  
ishlari agentligi, AOKA hamda o'zbek tilida so'zlashuvchi  
wikimedia guruhi foydalanuvchilari bilan hamkorlikda  
“Wiki-stipendiya” marafoni e'lon qilindi. Bundan asosiy  
maqsad internet tarmog'ida o'zbek tilidagi foydali  
ma'lumotlarni ko'paytirish.

O'zbek tilidagi Wikipedia muharrirlari WikiStipendiya  
marafonida qatnashishlari va pul mukofotlarini qo'liga  
kiritishlari mumkin. Loyha internet tarmog'ida o'zbek  
tilidagi sifatli ma'lumotlarni ko'paytirish va iqtidorli



# tilimiz\_uchun

Wikistipendiya\_bot

talabalarni munosib rag'battalantirishga qaratilgan. Ushbu  
marafon shu yilning 20-mayidan 20-dekabriga qadar  
o'tkazilishi rejalashdirildi.

Marafonda mustaqil ravishda maqola yozish va boshqa  
tillardagi materiallarni tarjima qilishga ham ruxsat beriladi.  
Tabiyi fanlar, geografiya, muhandislik va texnologiya, ijtimoiy  
fanlar, falsafa, tarix, madaniyat va san'at, shuningdek, o'yinlar  
va sport yo'nalishlari ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.  
Loyihada 15 yoshdan oshgan har kim ishtirot etishi mumkin.  
Buning uchun @Wikistipendiya\_bot marafon Telegram  
botida ro'yxatdan o'tish kerak. Tanlov tashkilotchilari  
ishtirokchilarning ishini baholaydi. WikiStipendiya har oy eng  
yaxshi muharrirlar reytingi e'lon qilib boriladi.

Loyha tashkilotchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Vikipediyaning  
o'zbekcha bo'limi 2003-yilning dekabrda ochilgan.  
Ayni paytda u yerda 139,7 mingdan ortiq maqola chop etilgan,  
unda 259 ta faol muharrir, 15 ta administrator bor. Aprel oyida  
o'zbekcha Vikipedia sahifalari 14,65 milliondan ortiq ko'rildi (8  
millionga yaqin ko'rish O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelmoqda).

“Viki-oromgoh” loyihasida respublikamizning turli  
joylaridan kelgan jami 150 nafar ishtirokchi qatnashdi.  
O'zbekcha vikipedia 2-avgust soat 00:00 dan 6-avgust  
18:00 ga qadar 8 726 taga yetdi. Natijada, O'zbekcha  
vikipedia 365 tilli reytingda ikki pog'ona ko'tarildi. Hafta  
davomida ishtirokchilar o'zaro guruhlarga bo'lingan holda har  
bir Vikiadministratordan individual mahorat darslarini oldik.

**Jumagul NISHONOVA,  
yoshlar yetakchisi**

## KULGI QANDAY PAYDO BO'LADI?

(HIKOYA)

Oltinchi sinfdagi fizika darsi. Bugun  
ular bu fanni birinchil bo'lyaptilar.  
O'qituvchi fizika o'zi nimaligi, qanday  
so'zdan olinganligi, unda nimalar  
o'rganilishi, bu fanga kimlar hissa  
qo'shganligi haqida dars davomida  
to'xtalib o'tdi.

O'qituvchi tushintirib bo'lgandan  
so'ng, savollar bormi deb so'rashi  
tabiiy albatta. Shunda Eshqo'zi  
o'rnidan turib:

– Menda savol bor, – dedi.

– Xo'sh...

– Ustoz, tabiatda uchraydigani  
narsalar, holatlar fizikada o'rganiladi  
dedingiz.

– Ha. Chaynalmasdan tezroq gapir  
Toshqo'ziyev.

– Ustoz, kulgi qaerdan paydo  
bo'ladi?

– Sen oldin joyingga o'tir.

Ustoz biroz suktuga toldi. Keyin  
chaynalib gapira boshladi.

– Kulgi, bolalar qorindan paydo  
bo'ladi. Masalan, darsda kulib o'tir-  
salaring o'qituvchi “jim o'tir” desa,  
darrov Jim bo'lasan-da keyin paq etib  
yorilasan-qo'yasan. Sening ichingda  
yig'ilgan molekulalar va atom zar-  
rachalari oshqozonga yig'iladi va bir-  
biri bilan kelisha olmagach, ichingdagisi  
bor g'am-g'ussalaringni chiqarib tash-  
laydi. Bu holat fanga “Broun harakati”  
bilan kirgan. Tushunarlimi?

Shu payt qo'ng'iroq chalinib qoldi.  
Va hayriyatki Eshqo'zi boshqa savol  
berishga ulgurmadi...

**Humoyun QO'SHNAZAROV**



**Muassis:**  
O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti

Bosh muharrir  
Eldor SHERMANOV

**Tahrir hay'ati:**  
Sobirjon JUMAYEV  
Ma'rufjon YO'LDOSHEV  
Jumagul NISHONOVA

**Mas'ul kotib:**  
Anvar QOBILOV

**Tahririyat manzili:** 100164 Toshkent shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yang'och mavzesi, 127 A uy.  
**Telefon:** (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.  
[www.dsni.uz](http://www.dsni.uz)  
[nashriyot@dsni.uz](mailto:nashriyot@dsni.uz)

**Sahifalovchi:**  
Abdug'an SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3,  
hajmi 2 bosma taboq.  
Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxda.  
Chop etishga 30.08.2022-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami  
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.  
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oqota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.